

BANK AKTIVLARINING SAMARALI FOYDALANISHNING MOHIYATI VA VAZIFALARI

Samadova Nilufar Sulton qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklarida aktivlar turlari, ularning tasnifi, va ular bilan bog'liq jarayonlarning muhim jihatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, aktivlarni optimallashtirish va bank faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Tijorat banklarida aktivlarni tahlil qilish, bank faoliyatini yanada samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlari turli nuqtai nazarlardan tahlil qilingan bo'lib, ular orasida bank aktivlari nazariy asoslari, amaliy tajribalar va innovatsion yondashuvlar mavjudligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Bank aktivlari, qiymatli qog'ozlar, kredit, mikroqarz, pul mablag'lari, overdraft, lizing, faktoring

Аннотация. В данной статье рассмотрены основные виды расходов в коммерческих банках, их классификация, важные аспекты связанных с ними процессов. Также разработаны предложения, направленные на оптимизацию расходов и повышение эффективности работы банка. Проводится в коммерческих банках с целью анализа классификаций расходов, более эффективного управления банковской деятельностью и рационального использования ресурсов. С разных точек зрения были проанализированы научно-теоретические подходы отечественных и зарубежных ученых по данной теме, среди которых были изучены теоретические основы банковского финансирования, практический опыт и инновационные подходы.

Ключевые слова: Активы банка, ценная бумага, кредит, банковские расходы, микрокредит, суммы денег, рентабельность, овердрафт, лизинг, факторинг

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotida bank tizimi real sektorni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bank aktivlaridan samarali foydalanish nafaqat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bank-moliya tizimini isloh qilish hamda raqamli texnologiyalar asosida yangi moliyaviy mahsulotlar joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va moliyaviy tartibga solish tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Ayniqsa, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da bank tizimida samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.¹

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, aktivlarni aniq faoliyat turlari kesimida hisobga olish va baholash, bank operatsiyalarini rejalashtirish va nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, KPI va byudjetlashtirish kabi tizimlar aktivlarni maqsadli va natijaviy boshqarishda samarali vosita sifatida tan olingan².

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar kontekstida, aktivlarni boshqarishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning ahamiyati ortib bormogda. Bunda “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi” (2020–2030)³ va “Bank tizimini raqamlashtirish strategiyasi” asosiy dasturiy hujjatlar hisoblanadi⁴.

Mavzuning dolzarbligi

Tijorat banklarining aktivlari tarkibi yildan-yilga murakkablashib bormogda. Kredit portfeli, investitsiyalar, likvid mablag‘lar va boshqa aktiv turlari hajmining ortishi bilan birga, ularni boshqarish xarajatlari ham o‘smogda. Xizmat turlari kengaygani sari operatsion va boshqaruv xarajatlarining oshishi bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois aktivlardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari – aktivlarning rentabelligi (ROA), foyda bilan ta‘minlangan aktivlar ulushi, aktivlar aylanish tezligi, likvid aktivlar ulushi kabi indikatorlarni faoliyat turlari bo‘yicha chuqur tahlil qilish zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, aktivlardan samarali foydalanishning zamonaviy uslublarini amaliyotga tatbiq etish orqali bank moliyaviy menejmentini kuchaytirish, strategik qarorlarni qabul qilishni takomillashtirish va ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruvni joriy etish imkoni paydo bo‘ladi. Ayniqsa, filial va markaziy apparat darajalarida bank aktivlarini tahlil qilish orqali samarasizlik manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish mumkin.

Tijorat banklarida aktivlarni boshqarish va ularning samarali foydalanilishini nazorat qilish tizimi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri baholash, aktivlar tarkibi va tuzilmasini chuqur tahlil qilish orqali daromadlilikni oshirish va risklarni kamaytirish mumkin. Mazkur magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi – O‘zbekistondagi tijorat banklari misolida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmon, PF–60, 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063>

aktivlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlilining amaldagi holatini o'rganish hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsad doirasida tijorat banklarida aktivlarning rentabellik darajasi (ROA), aktivlar aylanish tezligi, likvidlik va risk darajasi kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribada qo'llaniladigan ilg'or metodlar – Basel standartlari, IFRS talablari, shuningdek, zamonaviy analitik yondashuvlar asosida aktivlarni boshqarishning samaradorligini oshirish yo'llari ishlab chiqiladi

Tijorat banklari aktivlarining asosiy toifalari va tavsifi

Aktivlar toifasi	Qisqacha tavsifi	Ilmiy manba va olimlarning fikrlari
Naqd pul va Markaziy bankdagi mablag'lar	Bankning eng likvid aktivlari bo'lib, kundalik operatsiyalar va majburiyatlarni bajarish uchun ishlatiladi.	Rose & Hudgins (2013) ta'kidlashicha, yuqori likvid aktivlar bankning to'lovga qobiliyatligini ta'minlaydi, lekin ortiqcha hajmi rentabellikni pasaytiradi.
Mijozlarga berilgan kreditlar	Bank daromadlarining asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotga moliyaviy resurslar yetkazib berish vazifasini bajaradi.	X. Abdullayev (2020) fikricha, kredit portfeli sifati bank aktivlaridan samarali foydalanishning eng muhim ko'rsatkichidir.
Investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar)	Bankning ortiqcha mablag'larini qimmatli qog'ozlarga joylashtirish orqali daromad olish va likvidlikni boshqarish imkonini beradi.	Fabozzi (2015) nazariyasiga ko'ra, diversifikatsiyalangan investitsiya portfeli risklarni kamaytiradi va barqaror daromad ta'minlaydi.
Asosiy vositalar	Bankning moddiy aktivlari: bino, uskuna, texnologik infratuzilma va transport vositalari.	M. Yo'ldoshev (2022) asoslashicha, asosiy vositalarning modernizatsiyasi xizmat sifatini oshiradi va uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi.
Boshqa aktivlar	Oldindan to'langan xarajatlar, debitor qarzlar, boshqa moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar.	Kolin Druri (2013) fikricha, boshqa aktivlarni tahlil qilish bankning ichki rezervlarini aniqlashga yordam beradi.

Ilmiy manbalarda bank aktivlaridan foydalanishda uchraydigan muammolar ham keng yoritilgan. Diamond va Dybvig (1983) likvidlik inqirozi nazariyasida, haddan tashqari kreditlash bankning to'lovga qobiliyatsiz bo'lishiga olib kelishi mumkinligini isbotlagan. Shuningdek, kredit risklarini noto'g'ri baholash aktiv sifatining yomonlashuviga, haddan ortiq xavfsiz aktivlarga yo'naltirish esa rentabellikning pasayishiga sabab bo'ladi. Bu muammolarga yechim sifatida Basel III standartlarida risklarni baholash tizimini takomillashtirish, portfelni

diversifikatsiya qilish va raqamli texnologiyalar orqali aktiv monitoringini kuchaytirish tavsiya etiladi⁵.

Bank aktivlaridan samarali foydalanish faqat foyda olishga emas, balki risklarni boshqarishga, likvidlikni saqlashga va strategik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori samaradorlikka ega banklar balans tuzilmasida optimal likvidlik-rentabellik nisbatini ushlab turadi va bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Shu bois, nazariy asoslar amaliy boshqaruvda ilmiy tahlil va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgandagina, bank aktivlarining haqiqiy potensialidan to'liq foydalanish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bank aktivlari samaradorligini oshirish dolzarb va murakkab vazifa bo'lib, banklar faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Riskni boshqarish tizimini takomillashtirish, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va xodimlar malakasini oshirish kabi yo'nalishlar banklarga o'z aktivlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish yo'llari

Kredit portfelini diversifikatsiya qilish. Kredit portfeli bankning asosiy aktivlaridan biridir. Kreditlarni turli sektorlarga taqsimlash, ya'ni, tijorat banki kreditlashni nafaqat korxonalariga, balki kichik va o'rta bizneslarga, shuningdek, xususiy shaxslarga ham taqdim etishi zarur. Shuningdek, risklarni minimallashtirish uchun kreditlarning tarkibida sifatli mijozlar va yuqori daromad keltiruvchi sektorlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tijorat banklarining kredit portfelining sifatini oshirishda kreditlarning resurs ta'minoti muhim o'rin tutadi, bunda banklar kreditlari uchun resurs ta'minotining eng barqaror qismi bo'lib, muddatli depozitlar va jamg'arma omonatlari hisoblanadi. Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini takomillashtirishga tushkinlik qilayotgan asosiy omil bo'lib, banklarda uzoq muddatli resurslarni yetishmasligi. Banklarning depozit operatsiyalari - yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini ma'lum shartlarda omonatlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalardir. Depozit operatsiyalariga odatda talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli depozitlar, omonatlar, jamg'arma kitobchalari va bank sertifikatlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat

1. 2020 yil 12 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

2. O‘zR Markaziy bankining 2022 yil yarim yillik uchun Moliyaviy barqarorlik sharhi, 27-bet.
3. Abduqodirov, N. (2020). Tijorat banklarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Karimov, O., & Tursunov, S. (2019). Bank aktivlarini boshqarish va samaradorligini oshirish. Moliyaviy jurnal, 4(2), 45-58.
5. Mamatqulov, B. (2021). Bank menejmenti va moliyaviy boshqaruv. Toshkent: Moliyaviy akademiya nashriyoti.
6. Rashidov, A. (2018). Bank aktivlari va ularning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va moliya, 3(15), 23-30.
7. Вахабов, А.В., & Хажибакиев, Ш.Х. (2021). Тижорат банклари активлари самарадорлигини
8. Central Bank of Uzbekistan. (2023). Banking sector indicators. Available at: <https://cbu.uz>